

## Xizmatlar sohasini rivojlanishi – kelajakdagi istiqbollar uchun bugungi natijalar

**Xizmatlar sohasi** – bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan erkin umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Xozirgi kunda insonning intellektual mehnati alohida rivojlanish va qiymatga ega bo'lmoqda, uning bo'linishi yuqori ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinalarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda.

Ushbu tendentsiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruvi bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi. Iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori daromadi unga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda.



Dastlabki ma'lumotlar




2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 30,9 ming birlikga yetdi. Xizmatlar sohasida jami 20,0 ming birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2018-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 25,8 % ga oshdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi sezilarli darajada salmog'lidir. Shunday qilib, 2019-yil 1-noyabr holatiga, u 64,6 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: kuzatilgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 19,1 %, qurilish - 9,0 % ga yetdi va atiga 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019-yil 1-noyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (37,4 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning soni 11,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi va xizmatlar sohasidagi tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonidagi ulushi 4,8 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ga teng bo'ldi.

**2019-yil 1-noyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



O'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 4,1 ming birlikga ko'paydi.

Shunday qilib, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 9 988,2 mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 109,3 % ni tashkil etdi.




*Dastlabki ma'lumotlar*

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'satilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 29,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (25,7 %), moliyaviy xizmatlar (12,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,0 %) bo'yicha qayd etildi.

Shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 1,1 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,4 %, kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 2,9 % uncha yuqori bo'limgan ulush qayd etildi.

### **2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %**




Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohatlar chuqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiyligi ovqatlanish va ma'ishiy xizmatlar kabi xizmat turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, internet, raqamli televideniya va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish omili, joriy yilning o'tgan davriga nisbatan savdo xizmatlari (333,4 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (288,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (175,7 mlrd. so'mga), ta'lif sohasidagi xizmatlar (137,6 mlrd. so'mga) hajmining oshishi hisoblanadi.

### **2019- yil yanvar-oktabr oylarida umumiyligi xizmatlar tarkibida ustun bo'lgan xizmat turlari, mlrd. so'm**



**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mldr. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>9 988,2</b>	<b>109,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	499,9	109,2
Moliyaviy xizmatlar	1 289,8	158,5
Transport xizmatlari	2 562,3	103,1
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	2 328,9	101,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	313,6	108,6
Savdo xizmatlari	2 900,1	103,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	298,3	100,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	495,2	105,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	143,7	107,8
Ijara xizmatlari	332,9	101,7
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	283,9	100,4
Shaxsiy xizmatlar	423,0	100,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	112,4	110,7
Boshqa xizmatlar	333,1	109,7

Dastlabki ma'lumotlar

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (158,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (110,7 %), boshqa xizmatlar (109,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (109,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (108,6 %) qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Yuqori bo'limgan o'sish ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarida (100,1 %), shaxsiy xizmatlarda (100,4 %) shuningdek, kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida (100,4 %) kuzatildi.

Transportning rivojlanish tarixi inson jamiyatining tarixidan ajralmasdir. Qadimgi davrlarda paydo bo'lgan transport, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishi va insonlarning yashash sharoitlari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanib, takomillashmoqda.

Buning sababi, mehnat qurollari va buyumlari shuningdek insonning o'zi o'zgarishga harakat qilmasdan iste'mol tovarlari yoki boshqa maqsadli yo'naltirilgan faoliyatni ishlab chiqarish mumkin emas.

Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan boqliq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalarini yanada takomillashtirish, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

### **2019-yil yanvar-oktabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, %**



Transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 90,9 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlarida boshqa transport faoliyati esa – 9,1 % qayd etildi.


Dastlabki ma'lumotlar

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'gri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilar transporti katta ulushga ega. Shunday qilib, 2019 yil yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 71,7 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 28,3 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-oktabr oylarida tashish turlari bo'yicha  
avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining tarkibi, %**



Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Bir mamlakatning boshqa davlatlarlar bilan tovarlar importi va eksportidan iborat bo'lgan savdosi tashqi savdo, turli mamlakatlarning bir-biri bilan umumiylashtirilgan savdo-sotig'i xalqaro savdo hisoblanadi. Ma'lum bir davlat ichida savdo ijtimoiy zarur iste'molchiga tovarlarni etkazib berish funksiyani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


Savdo shu jumladan, elektron xizmatlarining yalpi ishlab chiqarilgan hajmi joriy narxlarda yalpi daromadi, ya'ni sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiylashtirilgan savdo hisoblanadi.

Tovarlarni boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotish bo'yicha bitim tuzilgan taqdirda, xizmatlar qiymatida mukofot miqdori aks ettiriladi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylashtirilgan savdo xizmatlarining ulushi 29,0 % ni tashkil etib, bu 2 900,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiylashtirilgan savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uchi – 75,3 % ga to'g'ri keladi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Dastlabki ma'lumotlar


2019-yil yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 10,0 % ni tashkil etdi.

Pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 289,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 502,3 mlrd. so'mga oshdi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,6 % ni tashkil etadi.


Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqarish, dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish va keng interfaol xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni toplash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 499,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 109,2 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'l doshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,9 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Dastlabki ma'lumotlar

Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiylajmiha jami hajmida nashriyotchilik xizmatlari – 0,9 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 0,6 %, axborotlashtirish xizmatlari – 0,5 %, boshqa xizmatlar – 0,1 % ni tashkil etishi qayd etildi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 495,2 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 105,9 % ni tashkil etdi.



2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 108,6 % ni tashkil etdi, hajmi esa 59,9 mlrd. so'mga oshdi va 313,6 mlrd. so'mga yetdi.


#### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiylaj hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 76,9 % bilan ustunlik qiladi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



2019-yil yanvar-oktabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 23,1 % ni tashkil etdi. Ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shunday qilib, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 16,7 mlrd. so'mga oshdi va 143,7 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etdi.



O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 436,3 ming so'mga oshdi va 2 609,3 ming so'mga teng bo'ldi, o'sishi 107,0 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarini, hududlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Keyinchalik yangi ish o'rinalarini yaratish orqali iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash, investitsiya, soliq, pul-kredit siyosatini, fan va texnik siyosatini takomillashtirish va yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali kichik biznesni rivojlantirish bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida, sifatli tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'lumi**  
**71-230-85-35**